



Interpretation of Quantum Meruit and Spearin Doctrines in the National Legal System of Uzbekistan: Normative and Doctrinal Foundations

Makhsetbay KARABAEV¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

Keywords:

Quantum Meruit,
Spirin doctrine,
construction contract,
unjust enrichment,
risk allocation,
risk of accidental damage to
materials,
construction law.

ABSTRACT

Based on a comprehensive legal analysis, this article examines the content, scope, and prospects for harmonizing two international doctrines that are significant in contemporary construction law—the Quantum Meruit doctrine and the Spirin doctrine—and assesses their compatibility with Uzbek civil law. The Quantum Meruit doctrine is considered as the national-law analogue of unjust enrichment in relation to Articles 1023–1030 of the Civil Code. The Spirin doctrine, understood as a principle for allocating liability for defects or errors in design documentation provided by the client, is related to Article 633 (risk of accidental loss), Articles 686–692 (contract law provisions) of the Civil Code of Uzbekistan, and to applicable standards governing the quality of design documentation.

The article develops regulatory proposals required for applying these doctrines in national construction-law practice and substantiates the need to create a coherent system for equitable risk allocation between parties in construction projects.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss2/S-pp586-591>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Doctoral student, Tashkent State University of Law.

Quantum Meruit va Spearin doktrinalarining O'zbekiston milliy huquq tizimidagi talqini: normativ va doktrinal asoslar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Quantum Meruit,
Spearin doktrinasi,
pudrat shartnomasi,
asossiz boylik,
risklarni taqsimlash,
materiallarning tasodifiy
nobud bo'lish xavfi,
qurilish huquqi.

Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy qurilish-huquqiy munosabatlarida muhim o'rin tutuvchi ikkita xalqaro doktrina — Quantum Meruit va Spearin doktrinalarining mazmuni, qo'llanish doirasi hamda ularni O'zbekiston fuqarolik huquqi bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari keng qamrovli yuridik tahlil asosida bayon etiladi. Quantum Meruit doktrinasi asossiz boylik institutining milliy-huquqiy ekvivalenti sifatida Fuqarolik kodeksining 1023–1030-moddalari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Spearin doktrinasining mohiyati esa buyurtmachi taqdim etgan loyiha hujjatlaridagi xatolar uchun javobgarlikni taqsimlash tamoyili sifatida, pudrat shartnomalarini tartibga soluvchi O'zbekiston Fuqarolik kodeksining 633-moddasi (materiallarning tasodifiy nobud bo'lish xavfi), 686-692 moddalar, loyiha hujjatlarining sifatiga oid normalar bilan milliyalashtiriladi.

Maqolada ushbu doktrinalarning milliy qurilish huquqi amaliyotida qo'llanilishi uchun zarur bo'lgan normativ takliflar ishlab chiqiladi hamda adolatli risk taqsimoti tizimining zarurligi asoslanadi.

Интерпретация доктрин Quantum Meruit и Spearin в национальной правовой системе Узбекистана: нормативные и доктринальные основы

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Quantum Meruit,
доктрина Спирина,
трудовой договор,
неосновательное
обогащение,
распределение рисков,
риск случайного
повреждения материалов,
строительное право.

В данной научной статье на основе комплексного правового анализа рассматриваются содержание, сфера применения и возможности гармонизации двух международных доктрин, играющих важную роль в современных строительно-правовых отношениях – доктрины «Квантум Меруит» и доктрины Спирина, а также возможности их гармонизации с гражданским законодательством Узбекистана. Доктрина «Квантум Меруит» исследуется как национальный правовой эквивалент института неосновательного обогащения в связи со статьями 1023–1030 Гражданского кодекса. Сущность доктрины Спирина как принципа распределения ответственности за ошибки в проектной документации, предоставленной заказчиком, национализируется статьей 633 (риск случайной гибели), статьями 686-692 Гражданского кодекса Узбекистана, регулирующими договоры подряда, и нормами о качестве проектной документации.

В статье разрабатываются нормативные предложения, необходимые для применения данных доктрин в практике национального строительного права, и обосновывается необходимость создания системы справедливого распределения рисков.

KIRISH

Qurilish sohasidagi shartnomaviy munosabatlar tartibga solinishi iqtisodiyotning barqarorligi va investitsion muhitning jozibadorligi uchun bevosita ahamiyatlidir. Xalqaro amaliyotda shartnoma huquqining murakkab jihatlarini talqin qilishda sudlar tomonidan shakllantirilgan doktrinalar — xususan Quantum Meruit va Spearin doktrinalari — qurilish shartnomalariga xos risklarni boshqarish va nizolarni hal etishda keng qo'llaniladi (Chern, 2016; Bailey, 2011).

Biroq O'zbekiston huquq tizimida mazkur doktrinalarning to'g'ridan-to'g'ri normativ shakli mavjud emas. Shu bilan birga, ularning asosiy mantiqi Fuqarolik kodeksining bir qator normalarida — asossiz boylik (1023-modda), tasodifiy nobud bo'lish xavfi (633-modda, 667-modda), pudratda qo'shimcha ishlar va boshqa moddalarda o'z aksini topgan.

Ilmiy ish ana shu global doktrinalarni milliy kontekstga moslashtirish imkoniyatlarini ilmiy asoslashga qaratilgan.

1. QUANTUM MERUIT DOKTRINASI

Quantum Meruit lotincha “qancha munosib bo'lsa, shuncha haq” ma'nosini anglatadi va umumiy huquq tizimida bajarilgan ishlar uchun adolatli kompensatsiya to'lash tamoyiliga asoslanadi (Uff, 2013). Doktrinaga ko'ra, pudratchi quyidagi holatlarda xizmat qiymati uchun haq olish huquqiga ega: shartnoma bo'lmasa, ammo ish bajarilgan bo'lsa; shartnoma bekor qilingan, biroq buyurtmachi bajarilgan natijadan foydalangan bo'lsa; qo'shimcha ishlar bajarilgan bo'lsa; narx bo'yicha kelishuv mavjud bo'lmasa; loyiha o'zgargan bo'lsa, ammo yangi narx kelishilmagan bo'lsa.

Bu tamoyil “adolatli ekvivalent kompensatsiya” prinsipiga asoslanadi. Quantum Meruit va asossiz boylik o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud bo'lib, ularni milliy qonunchilikda uyg'unlashtirish uchun quyidagi normativ asos mavjud.

O'zbekiston Fuqarolik kodeksining 1023-moddasi Quantum Meruit doktrinasi bilan mazmunan eng yaqin institutni bo'lgan asossiz boylikni belgilaydi: “Qonunchilikda yoki bitimda asos bo'lmagan holda boshqa shaxs hisobidan mol-mulkni egallab olgan shaxs asossiz orttirilgan boylikni qaytarishi shart.”

Bu qoida Quantum Meruitning markaziy tamoyillari bilan mos keladi: pudratchi bajarilgan ishni topshirgan; buyurtmachi natijadan foydalangan; biroq to'lovni amalga oshirmagan; natijada buyurtmachi asossiz boylikka ega bo'lgan bo'ladi.

Quyidagi normalar Quantum Meruitning milliy shaklini mustahkamlaydi: zarur qo'shimcha ishlarni bajarish va ularning haqini undirish; asos bo'lmagan holda

bajarilgan ishlar uchun haq; adolat, oqilonalik va vijdonlilik. Demak, O'zbekiston huquqida Quantum Meruit tamoyili bevosita emas, bilvosita tarzda ifoda etilgan.

Lekin amaliy muammolar mavjud bo'lib amalda:

buyurtmachilar qo'shimcha ishlar uchun to'lovdan bosh tortadi;

sudlar ayrim hollarda faqat shartnomada ko'rsatilgan narxga tayanadi;

loyiha o'zgarishlarining qiymatini belgilashda vakum mavjud.

Shu sababli Quantum Meruitni normativ darajada mustahkamlash maqsadga muvofiq.

2. SPEARIN DOKTRINASI

Spearin doktrinasini 1918 yilda AQSh Oliy sudi tomonidan chiqarilgan United States v. Spearin iqtisodiy ahamiyatga ega qarorida shakllantirilgan (Spearin, 1918).

Doktrinaga ko'ra, buyurtmachi taqdim etgan loyiha hujjatlari to'g'ri bo'lishi kerak. Agar loyiha xato bo'lsa, pudratchi bu xatolar uchun javobgar emas. Loyiha xatosi oqibatida yuzaga kelgan zarar buyurtmachining javobgarligi. Bu tamoyil pudratchining nohaq ravishda "barcha risklar zimmasiga yuklanishi" holatini bartaraf etadi. O'zbekiston Fuqarolik kodeksida loyiha hujjatlarining xatolari uchun bevosita Spearin ekvivalenti mavjud emas, biroq risklarni taqsimlash tushunchasi mavjud bo'lib, uni doktrinaga mos tarzda talqin qilish mumkin.

FK 633-modda quyidagi tamoyilni belgilaydi: "Materiallarning tasodifan nobud bo'lish xavfi pudratchi ishni topshirgunga qadar materiallarni bergan taraf zimmasida bo'ladi." Bu norma risk taqsimoti tamoyillarining markaziy qismidir. Spearin doktrinasida ham risklarni adolatli taqsimlash konsepsiyasi mavjud. Shu bois, FK 633 moddasi — Spearin doktrinasining risk taqsimoti tamoyilini milliy huquqiy asosda talqin qilish imkonini beradi. Pudrat shartnomalarida loyiha xatolari uchun javobgarlik quyidagi normalar asosida loyihaga oid masalalar bilvosita tartibga solinadi. Bular buyurtmachining majburiyatlari, pudratchining majburiyatlari, loyiha hujjatlariga rioya qilish, qo'shimcha ishlar va nuqsonlar uchun javobgarlik bo'lib hisoblanadi. Ushbu normalar Spearin doktrinasining huquqiy talqini sifatida xizmat qilishi mumkin.

3.DOKTRINALARNI MILLIY QONUNCHILIKKA IMPLEMENTATSIYA QILISH TAKLIFLARI

Quantum Meruit — yuridik konsept sifatida bajarilgan, ammo shartnoma bilan to'liq qoplanmagan ish uchun «adolatli kompensatsiya»ni nazarda tutadi. Bu tamoyil odatda soha amaliyotida bajarilgan ish hajmi va sifatiga qarab to'lovni belgilashni taqozo etadi.

O'zbekiston Fuqarolik kodeksining 1023-moddasi Quantum Meruit tamoyilining asosiy mazmunini qisman ifodalaydi. Shu bilan birga, amaliyotni takomillashtirish uchun quyidagi takliflar muhim:

"Adolatli kompensatsiya" kontsepsiyasini mustaqil huquqiy norma sifatida kiritish kerak. Bu norma pudrat shartnomasidan tashqarida bajarilgan ishlarning alohida baholanishini huquqiy jihatdan aniq belgilaydi.

Qo'shimcha ishlarni baholash va ularga to'lovni hisoblash uchun standart metodika ishlab chiqilishi lozim. Bu yondashuv shaffoflik va adolatni ta'minlaydi hamda amaliyotda nizolarni kamaytiradi.

“Natijadan foydalanish to'lov majburiyatini yuzaga keltiradi” tamoyilini qonunchilik darajasida mustahkamlash zarur. Bu prinsip bajarilgan ishlar natijasidan foyda olgan tomonning to'lovni amalga oshirish majburiyatini aniq belgilaydi.

Spearin doktrinasi va milliy huquqiy moslashuvda esa Spearin doktrinasi loyiha hujjatlari va pudrat shartnomasi sifatiga oid ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, loyiha egalari (buyurtmachilar) javobgarligi va pudratchilar huquqlari balansini himoya qiladi. Fuqarolik Kodeksi 633-moddada bu mexanizmning asoslari mavjud bo'lsa-da, amaliyotda yanada aniqlik va kafolat talab etiladi.

Taklif etilayotgan takomillashtirishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Buyurtmachi — loyiha hujjatlari sifati uchun bevosita javobgarlikni zimmasiga oluvchi alohida norma kiritilishi. Bu pudratchilar uchun loyihaning yetarli sifatda taqdim etilishini ta'minlaydi va tadbirkorlik yuritishda xavfni sezilarli darajada kamaytiradi. Pudratchining loyiha hujjatlaridagi xatoliklar uchun javobgarligini cheklaydigan qoidalar belgilanishi. Bu pudratchining faqat o'z faoliyat hududidagi kamchiliklar uchun javobgarlikni amalga oshirishini aniq ko'rsatadi.

Davlat xaridlari jarayonida loyiha ekspertizasini yanada kuchaytirish orqali loyiha sifatini va qonunlarga to'liqligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish mamlakat qurilish sektoridagi korrupsiyaga qarshi kurashish va sifat nazoratini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Amaliy ta'siri va muammolarni kamaytirish imkoniyatlari tahlilida Quantum Meruit va Spearin doktrinalari milliy qonunchilikka singdirilganda quyidagi ijobiy ta'sirlar kutiladi:

Qurilish munosabatlaridagi risklar adolatli taqsimlanadi, bu esa tomonlar o'rtasidagi nizolar to'g'risida sud qarorlarining bir xilligini oshiradi. Shartnomaviy munosabatlar barqarorligi kuchayadi, chunki tomonlar majburiyatlari va javobgarliklari aniq belgilangan bo'ladi. Qurilish va pudrat sohasida shartnomalar bajarilishidan kelib chiqadigan nizolar kamayadi, sud yurisdiksiyasining samaradorligi oshadi. Milliy sud amaliyotining konsistentligi ta'minlanadi, bu esa uzoq muddatli yuridik ishonchlilikni avj olishini rag'batlantiradi.

Xulosa sifatida tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Quantum Meruit va Spearin doktrinalarining mazmun-mohiyati O'zbekiston fuqarolik qonunchiligining hozirgi normalari bilan yuqori darajada uyg'unlikka ega. Ayniqsa, bajarilgan, ammo shartnoma bilan to'liq qoplanmagan ishlar uchun adolatli to'lovni kafolatlovchi Quantum Meruit tamoyili va loyiha hujjatlari sifati uchun buyurtmachining javobgarligini belgilovchi Spearin doktrinasi mamlakatimiz sharoitida pudrat munosabatlarini tartibga solishning samarali vositasi bo'la oladi.

Ushbu doktrinalarni milliy qonunchilikka joriy qilish qurilish sohasida risklarni teng taqsimlash, shartnoma asosidagi munosabatlarni mustahkamlash, loyiha sifati va ijro mas'uliyatlarini aniq belgilash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, sohada yuzaga keladigan nizolar sonini kamaytirish, huquqiy amaliyotda barqarorlik va izchillikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, Quantum Meruit va Spearin doktrinalarining kodifikatsiyaga kiritilishi orqali milliy pudrat huquqining yanada mukammal, adolatli va zamonaviy mexanizmlar asosida shakllanishi mumkin.

Mazkur mexanizmlar Fuqarolik kodeksining 1023 va 633-moddalari doirasida ilgari surilgan konseptual platformani qonun darajasida to'liq ifodalashga imkon bersa, yangi normativlar amaliyotda yuzaga keladigan qonuniy bo'shliqlarni bartaraf etishda samarali rol o'ynaydi. Bu esa qonuniy munosabatlarning oshkoraligi va bashorat qilinuvchanligini oshirish, investor va pudratchilarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu bois, Quantum Meruit va Spearin doktrinalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish takliflari O'zbekiston fuqarolik huquqini rivojlantirishda nafaqat nazariy, balki yuqori amaliy qiymatga ega bo'lib, mamlakatning huquqiy tizimini global standartlar bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning talablariga moslashtirishda muhim qadam sanaladi.

Kelajakdagi ilmiy tadqiqotlarda ushbu doktrinalarning sud amaliyotiga integratsiyasi, normativ-huquqiy mexanizmlarning samaradorligi, shuningdek, boshqa mamlakatlarning tajribasi asosida metodologik tavsiyalar ishlab chiqilishi dolzarb masala sifatida qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Chern C. Construction Law Practice and Procedure. Informa Law, 2016.
2. Uff J. Construction Law. Sweet and Maxwell, 2013.
3. United States v Spearin, 248 U.S. 132 (1918).
4. Bailey I. Construction Law. Taylor and Francis, 2011.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
6. Murdoch J., Hughes W. Construction Contracts: Law and Management. Routledge, 2008.